ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TOPISHMOQLARNI TASNIFLASH MUAMMOLARI

Turg'unova Maftunaxon Jamoldin qizi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Topishmoqlar tasnifi xalq tafakkuri, dunyoqarashi va badiiy fikrlash darajasini aks ettiradi. Ular mavzu, tuzilish va ifoda jihatidan rang-barang bo'lib, xalq og'zaki ijodining muhim janri sanaladi.

Jahon tilshunosligida topishmoqlar (riddles) tasnifi bilan bir qator mashhur folklorshunos va tilshunos olimlar shug'ullangan. Ular topishmoqlarni mavzu, tuzilish, funksiyasi va semantik xususiyatlari asosida guruhlarga ajratgan.

Jahon miqyosida topishmoqlarni ilmiy tasniflagan eng yirik tadqiqotchi Archer Taylor (AQSh) «English Riddles from Oral Tradition» (1951) kitobida topishmoqlarni predmetli, harakatga asoslangan, metaforik, mantiqiy kabi turlarga ajratgan. «U topishmoqqa izoh berar ekan, «haqiqiy topishmoq (true riddle) bu jumboqli obyektni undan keskin farq qiladigan narsa bilan taqqoslash[1]« deb hisoblaydi. A.Teylor ham xuddi R.Petsh[2] kabi topishmoqda yadro va raqamlovchi komponentlarni ajratib ko'rsatadi. Yadrodagi ikki tarkkibiy qism: metaforik xarakterga ega bo'lgan asosiy tasvirlovchi element (positive element) va unga qarshi qo'yiladigan so'zma-so'z ifodalanadigan belgi (negative element). Masalan, kartoshka haqidagi quyidagi irland topishmog'ida shu elementlar sezillib turadi:

Something has eyes but cannot see (Ko'zlari bor, lekin ko'rmaydi)

Bunda «ko'zlari bor» birikmasi metaforik xarakterdagi tasvirlovchi element bo'lsa, «ko'ra olmaslik» to'g'ridan-to'g'ri anglashilishi mumkin bo'lgan belgi hisoblanadi.[3]«

Tadqiqotchilar R.Djordj va A.Dandes topishmoqlarga ta'rif berishga urinib, R.Petsh va A.Teylor nazariyalariga ergashadilar va diqqatlarini topishmoqning tasvirlovchi qismiga qaratadilar. Ularning fikricha, topishmoqning ta'rifini berish uchun minimal tahlil birligini ajratib olish lozim. Buning uchun esa ular «tavsiflovchi component»[4] terminini taklif qilishgan. R.Djorj va A.Dandeslarning fikricha, tavsiflovchi komponent mavzu (topic) va izoh (comment) dan iborat bo'ladi. Mavzu – bu aniqlanayotgan obyekt, izoh esa u haqidagi tuzilishi, funksional jihatlari bilan bog'liq bo'lgan maxsus ma'lumotdir. Masalan, gugurt haqidagi It has a head but can't think (Boshi bor, lekin o'ylay olmaydi) topishmog'i ikkita tavsiflovchi komponentdan iborat. Birinchisi It has a head (boshi bor) va ikkinchisi can't think (o'ylay olmaydi) kabi komponentlardir[5]. Yuqoridagilarga tayanib, ular topishmoqqa quyidagicha ta'rif beradilar: «Topishmoq qarama-qarshi bo'lishi mumkin bo'lgan bir yoki bir nechta tavsiflovchi qismlardan tashkil topgan an'anaviy og'zaki ibora bo'lib, bunda referent nimaligini topish zarur»[6].

T.A.Grin va U.Dj. Pepichello topishmoqlarni javob talab qiladigan har xil turdagi (allergoik tavsiflardan farqli o'laroq) an'anaviy savollar[7] deb ta'riflaydilar. Masalan, so'z o'yiniga asoslangan kofe haqidagi topishmoqda (ground yer ma'nosida, ground yanchilgan ma'nosida): When is coffe like the soil? (When it is ground); Qachon kofe yerga o'xshash bo'ladi? (Qachonki ground (yanchilgan yokli yer) bo'lganida). Muallifninf fikriga ko'ra, topishmoqlar savol-javob shakliga ega bo'lib, savolda keltirilgan ma'lumotga asoslangan holda uning javobini topish imkoniyati yuzaga keladi.[8]

Ch.Skottning fikriga ko'ra, «topishmoq p (proposition) majburiy propozitsiyalar bilan to'ldirilgan uya va a (answer) majburiy javoblar uyasidan tashkil

[1] Taylor A. English Riddles from Oral Tradition. Berkley; Los Angeles, 1951, p.5
[2] Petsch, Robert. Neue Beiträge zur Kenntnis des Volksrätsels. Palaestra IV. Berlin: Mayer & Müller, 1899.
[3] Якубова Н. Жумбоқли матнларнинг семантик ва прагматик хусусиятлари. Ф.ф.ф.д.(PhD) ... дис. – Фаргона, 2022. – Б 67.
[4] Georges R. A., Dundes A. Toward a structural definition of the riddle// The journal of American folklore 1963. Vol. 76, № 300. P.111
[5] Georges R. A., Dundes A. Toward a structural definition of the riddle// The journal of American folklore 1963. Vol. 76, № 300. P.112
[6] Georges R. A., Dundes A. Toward a structural definition of the riddle// The journal of American folklore 1963. Vol. 76, № 300. P.113
[7] Green T.A., Pepicello W.J. The Folk Riddle: A. Redefinition of terms // Western folklore. 1979. Vol. 38, № 1.P.17
[8] Якубова Н. Жумбоқли матнларнинг семантик ва прагматик хусусиятлари. Ф.ф.ф.д.(PhD) ... дис. – Фаргона, 2022. – Б 68

topgan nutq birligi» deb ta'riflanishi kerak. Ch.Skott topishmoqning semantik aspektiga e'tiborini qaratib, tavsiflovchi qism va yechim o'rtasidagi to'liq bo'lmagan semantik nomutanosiblikka to'xtaladi va uni «qisman yashiringan semantik moslik» («unit of discourse consist in go fan obligatory propositions lot filled by anutterance p and obligatory answers lot filled by anutterance a») deb ataydi. Ch.Skott jumboqning tavsiflovchi qismini javobda keltirilgan ba'zi bir semantik xususiyatlarni o'zgartiruvchi allosemalar to'plami sifatida qaraydi[1].

Tadqiqotchi I.Hemnett ta'kidlashicha, jumboqlar noaniqlik va ambivalentlikning bir ko'rinishi bo'lib, ularni aynan shunday tushunchalarning ijtimoiy va kognitiv asosida o'rganish lozim. I.Hemnett topishmoqda ikkita o'zaro nomuvofiq konsept va talqinlarning kombinatsiyasini ko'radi[2]. Hamnett nazarida topishmoqning asosiy belgisi – ma'nodagi ikkiyoqlamalilik. Shu asosda, u topishmoqlarni quyidagicha ko'radi:

1. Semantik noaniqlikka asoslangan topishmoqlar: so'z yoki obraz bir nechta ma'noni anglatadi; javob topish jarayoni mantiqiy qayta talqin orqali amalga oshadi.

2. Metaforik noaniqlikdagi topishmoqlar: buyum yoki hodisa boshqa narsa orqali tasvirlanadi; kognitiv xaritalash (bir sohadan boshqa sohaga ko'chirish) muhim. Bu tasnif kognitiv tilshunoslikdagi metofara va mental fazolar nazariyasiga yaqin.

Hamnett topishmoqlarni jamiyatdagi bajaradigan vazifasiga ko'ra ham tasniflaydi:

1. Didaktik topishmoqlar: bilim, tajriba, ijtimoiy me'yorlarni o'rgatadi.

2. Ijtimoiy-marosimiy topishmoqlar: aql charxlash, muloqotni faollashtirishga xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy tanqidiy topishmoqlar: jamiyatdagi muammolarni bilvosita, ramziy ifodalaydi.

Hamnett qat'iy, o'zgarmas tasnifga qarshi chiqadi. Uning fikricha, topishmoq ijtimoiy sharoitga qarab o'zgaradi. Bir topishmoq turli davrlarda turli funksiyalarni bajarishi mumkin. Tasnif statik emas, balki jarayonli (processual) bo'lishi kerak. Bu jihat «classification and change» tushunchasining asosini tashkil etadi.

Hamnettning «Ambiguity, Classification and Change: The function of Riddles» kitobida yana quyidagi g'oyalar ilgari suriladi. Topishmoq bu – noaniqlikni boshqarish vositasi. U inson ongida qarama-qarshi tushunchalarni uyg'unlashtiradi. Topishmoqlar tafakkur modeli hisoblanadi. Qanday fikrlash, taqqoslash va xulosa chiqarish mexanizmini ko'rsatadi. Topishmoqlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Savol-javob jarayoni orqali kommunikativ birlik hosil qiladi. Topishmoq tasnifi madaniyatga bog'liq. Bir xalqda «oddiy» bo'lgan topishmoq boshqasida murakkab bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan topishmoqlar funksiyasi o'zgaradi. An'anaviy, marosimiy vazifadan o'yin-kulgi yoki ta'limiy vazifaga o'tadi.

Hamnettning ushbu ilmiy asarida topishmoqlarni nafaqat folklor namunasi, balki kognitiv, semantik va ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Uning tasnifi noaniqlik (ambiguity), funksiya, ijtimoiy o'zgarish kabi mezonlarga tayangan bo'lib, bugungi kognitiv tilshunoslikda topishmoqlarni tahlil qilish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Topishmoqni folklor janri sifatida mustaqil o'rgangan amerikalik olimlar R.D.Abrahams va A.Dundeslar[3] topishmoqlarni kommunikativ va ijtimoiy funksiya nuqtayi nazaridan tasniflagan. Ularni o'yin-topishmoqlar, sinov-topishmoqlar, marosimga oid topishmoqlar tarzida guruhlagan. Abrahams va Dundes topishmoqlarni struktur-semiotik yondashuv asosida tahlil qilgan. Ularni qarama-qarshilikka va analogiyaga asoslangan topishmoqlarga ajratgan.

Tadqiqotchilar topishmoqlarni tahlil qilish jarayonida uning ham struktural, ham kognitiv aspektlariga diqqat qaratadilar. Ular topishmoqdagi tasvirni (yoki geshtaltni) aks ettirishning 4 ta asosiy usulini ajratib ko'rsatadi: oppozitsiya, noto'liq ta'rif, tasvirlashdagi ortiqcha tafsilotlar, yolg'on obraz[4].

E. Kyonges-Maranda topishmoqlarni tasniflashda fin jumboqlariga asoslanib, topishmoq va javob o'rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda, «topishmoq-metafora (shakli yoki tuzilishi o'xshash bo'lgan ikki xil obyektni qiyoslash)» va «topishmoq-paradokslar(funksional jihatlari o'xshash bo'lgan ikki xil obyektni qiyoslash)»[5]ni ajratadi. Muallif topishmoq metaforani ikki to'plamning birlashishi, boshqotirma-paradoksni esa ikkita to'plamning kesishishi sifatida belgilaydi. Klassifikatsiya masalalarini davom ettirgan holda, nemis tilshunosligida topishmoqlar ustida tadqiqot ishlarini olib borgan olim R.Petsh o'z asarlarida topishmoqlarni «asl» (diewirklichen Volksratsel) va «asl bo'lmagan» (unwirkliche) kabi turlarga ajratadi. Birinchi navbatda, topishmoq yadrosini tashkil etuvchi tasniflovchini, xoh u tasviriy

[1] Senderovich S. Ya., 2008.Morfologiya zagadki [Morphology of the riddle]. Moscow. P.29

[2] Hamnett I. Ambiguity, classification and change: the function of riddles, 1967. URL: http: //www.era.anthropology.ac.uk./Era_/Riddles/hamnet.html

[3] Abrahams R. D., DundesA. Riddles // Folklor andfolklife: The introduction. University of Chicago Press, 1972.

[4] Abrahams R. D., DundesA. Riddles // Folklor andfolklife: The introduction. University of Chicago Press, 1972. P. 131

[5] Кёнгес-Маранда Э. Логика загадок/ Н.Кузминая таржимаси// Паремиологический сборник. Пословица. Загадка(структура, смысл, текст). – М., 1978.С.253.

xarakterga ega bo'lsin, xoh tovushli aks-sado bo'lsin, topishmoq uchun asosiy shart sifatida ta'kidlaydi. Uningcha, topishmoqqa xos 5 asosiy komponentni ajratib ko'rsatish mumkin: raqamlovchi kirish qism (einfuhrendes Rahmenelement), yadro qismi, ya'ni yashirin obyektni bilvosita nomlab, ifodalovchi qism (benennendes Kernelelement), yadroni tasvirlovchi qism (beschreibendes Kernelelement), to'xtatuvchi, o'ylantiruvchi element (hemmendes Element), shuningddek, raqamlovchi yakuniy qism (abschliessendes Rahmenelement)[1].

Lekin bu komponentlarning barchasi ham topishmoqlar uchun majburiy emas. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, topishmoq uchun ikki elemet ham kifoya qiladi: bilvosita nomlanuvchi va tasvirlovchi.

Rus olimi V.Propp ertakshunos bo'lsa-da, folklor janrlari tizimida topishmoqlarga ham to'xtalgan. Topishmoqlarni tasviriy-obrazli, ramziy turlarga ajratgan[2]. A. A. Potebnya topishmoqlarni tafakkur va til bilan bog'lab o'rgangan. Ularni metaforik tafakkur mahsuli sifatida izohlagan. U uchun tasnifda ma'no yashirinligi asosiy mezon bo'lgan[3].

Demak, A. Taylorning tasnifi klassik va asosiy tasnif hisoblansa, Abrahams, Dundeslarning tasnifi funksional va semiotik tasnif. Rus tilshunoslari Propp va Potebnyalar esa tasnifni tafakkur va obrazlilik asosida amalga oshirilgan.

Daniyalik B.Holbek Skandinaviya folklorida topishmoqlarni semantik va struktural jihatdan tasniflagan. U obraz – predmet – yashirin ma'no munosabatiga urg'u bergan[4].

O'zbek tilshunosligi va folklorshunosligida topishmoqlar tasnifi bilan bir qator olimlar shug'ullangan. Ular topishmoqlarni mavzu, tuzilish, badiiy vosita va semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlashgan. Jumladan, M.Afzalov topishmoqlarni mavzusiga ko'ra (tabiat, inson, hayvonot, mehnat qurollari va boshqalar)[5] tasniflagan. T.Mirzayev esa o'zbek folklorida topishmoqlarni janr sifatida ilmiy tizimga solgan, ularning struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilgan[6]. B.Sarimsoqov topishmoqlarni badiiy tafakkur mahsuli sifatida baholab, ramziy obrazlar asosida tasniflagan[7]. Sh.Turdimov topishmoqlarning til birliklari, metafora va o'xshatishlar asosida qurilishini o'rgangan[8]. O.Safarov topishmoqlarning lingvopoetik va semantik qatlamlarini tadqiq etgan[9].

M.Abduraimov[10] tomonidan tuzilgan to'plamda 1000 ga yaqin topishmoqlar berilgan bo'lib, u topishmoqlarni tabiat hodisalari; odam va uning a'zolari; hayvonot dunyosi; parranda va qushlar; hasharotlar; o'simliklar dunyosi; ekin va o'simliklar; poliz ekinlari va sabzavotlar; oziq-ovqatlar; mehnat, ish qurollari; uy-joy va tegishli jihozlar; uy xo'jalik asboblari; kiyim-kechak, bezak va tikuvchilik asboblari, kitob va yozuv; cholg'u asboblari; o'yinlar va o'yinchoqlar; ot asboblari va yo'l; ertakli topishmoqlar; yangi topishmoqlar; hazil so'zlar va so'z o'yini kabi turlarga bo'ladi. To'plamda:

1. Tabiat hodisalari haqidagi topishmoqlar: 107 ta. M.Abduraimov bu tasnifda oy, quyosh, yulduz, yer va shu kabi koinot jismlari, sayyoralar bilan bog'liq bo'lgan topishmoqlarni ham qo'shib yuborgan. Mening fikrimcha, javobi oy, quyosh, yer bo'lgan topishmoqlarni koinot va osmon jismlari haqidagi topishmoqlar deb alohida ajratish kerak.

2. Odam va uning a`zolari haqidagi topishmoqlar: 108 ta. Bu tasnifda she'riy topishmoqlar ham bor bo'lib, ular asosida bolalarning nutqini rivojlantirish, kognitiv faoliyatini oshirish mumkin: Hovuzcha,

Hovuzcha ustida buloqcha,
Buloqcha ustida chiroqcha,
Chiroqcha ustida qalamcha,
Qalamcha ustida ayvoncha,
Ayvoncha ustida chakalakzor (og'iz, burun, ko'z, qosh, peshona, soch)

3. Hayvonot dunyosi haqidagi topishmoqlar: 80 ta

4. Parranda va qushlar haqidagi topishmoqlar: 38 ta

5. Hasharotlar haqidagi topishmoqlar: 46 ta

6. O'simliklar dunyosi haqidagi topishmoqlar: 49 ta

7. Ekin va o'simliklar haqidagi topishmoqlar: 59 ta

8. Poliz ekinlari va sabzavotlar haqidagi topishmoqlar: 37 ta

9. Oziq-ovqatlar haqidagi topishmoqlar: 31 ta

10. Mehnat ish qurollari haqidagi topishmoqlar:

[1] Petsch, Robert. Neue Beiträge zur Kenntnis des Volksrätsels. Palaestra IV. Berlin: Mayer & Müller, 1899.

[2] Пропп, В. Я. Фольклор и действительность: Избранные статьи / Сост., ред. и предисл. Б. Н. Путилова. – Москва: Наука, 1976. – С. 62–64.

[3] Потебня, А. А. Из записок по теории словесности / А. А. Потебня. – Харьков. Издание М.В. Потебни, 1905. – 583 с.

[4] Holbek, B. (1970). "Games of Riddles". Journal of the Folklore Institute, 7(2/3), 119-140.

[5] Afzalov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi: Topishmoqlar. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 5

[6] Mirzayev T. O'zbek xalq topishmoqlari. – Toshkent: Fan, 1981. (Yoki: Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi janrlari tizimi va poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985).

[7] Sarimsoqov B. O'zbek folklori estetikasi. – Toshkent: Fan, 2004. (Shuningdek: Sarimsoqov B. Folklorizmlar va badiiy tafakkur // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1996. – № 3).

[8] Turdimov Sh. O'zbek folklorida lisoniy o'xshatishlar va metafora. – Toshkent: Fan, 1992.

[9] Safarov O. O'zbek xalq bolalar o'yinlari va topishmoqlari lingvopoetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992

[10] Ўзбек халқ топишмоқлари. Тузувчи: М.Абдурахимов. www.ziyozuz.com кутубхонаси. 2008.

44 ta

11. Uy-joy va unga tegishli asboblar haqidagi topishmoqlar: 74 ta

12. Uy-xo'jalik asboblari haqidagi topishmoqlar: 82 ta

13. Olov, tutun chiroq haqidagi topishmoqlar: 30 ta

14. Kiyim-kechak, bezak va tikuvchilik asboblari haqidagi topishmoqlar: 54 ta

15. Kitob va yozuv haqidagi topishmoqlar: 9 ta

16. Cholg'u asboblari haqidagi topishmoqlar: 8 ta

17. O'yinlar va o'yinchoqlar haqidagi topishmoqlar: 5 ta

18. Ot asboblari va yo'l haqidagi topishmoqlar: 35 ta

19. Kem ava qurol-yaroqlar haqidagi topishmoqlar: 12 ta

20. Har xil topishmoqlar: 10 ta. Men bu tasnifni aralash topishmoqlar shaklida keltirgan bo'lardim.

21. Ertakli topishmoqlar: 2 ta

22. Yangi topishmoqlar: 137 ta. Bu tasnifda keltirilgan topishmoqlarning barchasi hozirgi kunda yangilik xususiyatini yo'qotib, eskirgan topishmoqqa aylangan.

23. Hazil so'roqlar va so'z o'yini: 48 ta

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ommabop janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlarni tasniflash muammosi folklorshunoslik va tilshunoslikning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Topishmoqlar tasnifi nafaqat mavzuviy guruhlashni, balki lingvistik, kognitiv va semiotik aspektlarni integratsiya qilgan holda, zamonaviy tilshunoslik (kognitiv va pragmatik) prinsiplari asosida yangitdan tizimlashtirishni talab etadi.

Rezyume. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlarni tasniflash prinsiplari va bu boradagi mavjud muammolar tahlil qilingan. Jahon va o'zbek folklorshunosligi hamda tilshunosligida topishmoqlar klassifikatsiyasiga oid yetakchi olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy o'rganilgan. Maqolada topishmoqlarning strukturaviy, semantik va ijtimoiy-funksional xususiyatlari ochib berilgan hamda o'zbek xalq topishmoqlari to'plamlaridagi mavzuviy tasniflarni zamonaviy kognitiv tilshunoslik talablari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Resume. This article analyzes the principles of classifying riddles as an important genre of folklore and discusses the existing problems in this field. A comparative study is conducted on the theoretical views of leading scholars in global and Uzbek folkloristics and linguistics regarding the classification of riddles. The paper highlights the structural, semantic, and socio-functional characteristics of riddles and proposes scientific recommendations for improving the thematic classification in Uzbek folk riddle collections based on the requirements of modern cognitive linguistics.

Резюме. В данной статье анализируются принципы классификации загадок как одного из ключевых жанров устного народного творчества, а также существующие проблемы в этой области. Проведен сравнительный анализ теоретических взглядов ведущих ученых мирового и узбекского фольклористики и языкознания на классификацию загадок. В работе раскрываются структурные, семантические и социально-функциональные особенности загадок, а также выдвигаются научные предложения по совершенствованию тематической классификации сборников узбекских народных загадок на основе требований современной когнитивной лингвистики.